



## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

**Saidaliyeva Dilshoda Kamoliddin qizi**

*Samarqand viloyati yuridik texnikumi talabasi*

**Annotatsiya:** *“Korrupsiya - bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir”. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qanday targ'ibotlar amalga oshirilayotgani va unga qarshi kurashishning eng muhim yo'llari haqida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Korrupsiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ustuvorlik, qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik.*

Keyingi yillarda davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda keng ko'lamdagi tashkiliy- huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish vakolatlari ham muvofiqlashtirildi. Bunda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga murossasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan huquqiy targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim va tarbiyaga doir chora - tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'yib kelmoqda. Islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni oldini olish, shuningdek jamiyatda korrupsiyaga qarshi murossasiz kurashishdan iborat. Bundan tashqari boshqa davlat organlari ham korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiradi, bular: Bosh prokuratura;, Davlat xavfsizlik xizmati;, Ichki ishlar vazirligi;, Adliya vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. Bosh prokuratura o'z vakolatlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruvni, dastlabki tergovni, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun



qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish hisoblanadi. Demak, keng ma'noda korrupsiya deganda bu mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchilarining nafaqat poraxo'rlik jinoyatlariga oid qilmishlari, balki, o'zlarining mansab yoxud xizmat mavqeini suiste'mol qilib shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo'lida siyosiy homiylik, mahalliychilik, "tanish-bilish"chilik, urug' – aymoqchilikka yo'l qo'yishlari ham nazarda tutiladi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani hal etish va yechimini toppish ustida bosh qotirishi lozim.

Jamiyatda ustuvor soha – ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi oldimizda ko'ndalang turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikrni yoshlar ongida shakllanib qolgani eng kata kamchiligimizdir. Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'siga korrupsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabda o'g'il – qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi sababi ekanligi haqida ko'roq tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad – muddaoga erisha olishimiz qiyin.

Qonunchilik tizimida ham kamchilik mavjud. Misol uchun, xonanadalar yoki boshqa ayrim toifa kishilarining xohlagancha qasr uylar qurishiga, televideniya ko'z – ko'z qilinishiga yo'l qo'yilishi qonunlar yaxshi ishlamayotganidan darak beradi. Masalaning ma'naviy tarafi ham borki, yengilgina yo'l bilan bunday shohona yashash bir vaqtlar prokuror yoki DAN xodimi tayyorlaydigan o'qishga kirishni istovchi yoshlar ko'payganiga o'xshash holatni paydo qilishi mumkin. Jamiyatda barcha sohada teng muvozanatni saqlashdek "oltin qoida" buzilmasligi tarafdorimiz.

Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy prinsiplar, *qonuniylik* - qonunga asoslangan barcha hujjatlarga amal qilishi; *korrupsiyaga toqatsizlik* - mehnat organlari va tassarufiy tashkilotlar o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'lishi. Mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi taqiqlanadi; *ochiqlik va shaffoflik* - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida vazirlik va uning tizimidagi boshqarmalar (tashkilotlar) xodimlari va kontragentlarini, keng jamoatchilikni xabardor qilishi; *korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga*



*oshirilayotgan chora-tadbirlarning tizimliliği va o'zaro bog'liqliligi* - hududiy boshqarmalar va tasarrufiy tashkilotlarning barcha funksiyalari va yo'nalishlariga integratsiya qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi; *korrupsiya bilan bo'g'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi* - - korrupsiya bilan bo'g'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan vazirlik tizimi xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar vazirlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi hisoblanadi.

"Korrupsiya — bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat" hisoblanadi. Korrupsiya bizning huquqlarimizni buzilishiga, demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazilishiga, bozorlardagi faoliyatga to'sqinlik qilishiga, hayot sifatini yomonlashishiga, insonlarning xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalarni ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib berishigacha olib keladi. Unga qarshi kurashishni jahon talablari asosida tashkil etish maqsadida mamlakatimizda 2008-yilda BMTning 2003-yil 13-oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi" Konventsiyasi ratifikatsiya qilindi. Shuningdek, "BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konventsiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari kelajagimiz avlodi bo'lmish yoshlarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishimiz lozim.

**Xulosa o'rnida:** Korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi – yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidam muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, ozodlik, erkinlik yaratgan boy imkoniyatlardan to'laonli foydalanish O'zbekistonda korrupsiya muammosi yechilishiga, qolaversa, uchta hokimiyatning o'zaro tiyib turish tamoyiliga nechog'li amal qilishiga chambarchas bog'liq bo'ladi. Korrupsiya taraqqiyot kushandasi, xavfsizlikka tahdid tug'diruvchi xavfli jinoyat. Bu illatga qarshi kurashish tegishli organlarninggina emas, barchaning ishi bo'lishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nurumbetova, S. (2022). VAIN ASPECTS OF PRACTICAL RELIGIOUS EXAMINATION IN THE INVESTIGATION OF CRIMES RELATED TO PROHIBITED RELIGIOUS MATERIALS. *Science and Innovation*, 1(6), 108-113.
2. Xolmanova, Z. (2020). *Kompyuter lingvistikasi*. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
3. Turdievna, K. Z., & Tursunalievna, A. M. (2023). Problems of Understanding and Translating Homonyms in the Artificial Intelligence System. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(5), 63-67.



4. Нурумбетова, С. А. (2022). КИБЕРМАЙДОНДАГИ КИБЕРТЕРРОРИЗМНИНГ МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИКГА НИСБАТАН КЎРСАТАДИГАН ЯНГИ ТАҲДИДЛАРИ. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 7(5).
5. Ruzimovna, K. G., & Xolmanova, Z. Formation and Development of Axiolinguistics. *International Journal on Integrated Education*, 3(9), 128-131.
6. Nazarova, O., Khujaev, O., & Jumanazarov, G. (2023, March). *Septoria (Septoria pistaciae Desm.) pathogen infecting pistachio nuts in Uzbekistan and its biological characteristics*. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012051). IOP Publishing.
7. Nurumbetova, S. (2022). ДИНИЙ МАЗМУНДАГИ ТАҚИҚЛАНГАН МАТЕРИАЛЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ДИНШУНОСЛИК ЭКСПЕРТИЗАСИНИ ЎТКАЗИШ АМАЛИЁТИНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(С6), 108-113.
8. Otajanova, M. (2022). Mythopoetic interpretation in the artistic work. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(7), 98-108.
9. Рuzимбаев, С. Р., & Сабирова, Н. Э. (2019). Эпические певцы-сказительницы. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 32, pp. 22-24). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
10. Akbarova, N., & Azamatov, Z. (2023). Deformation measurement by digital holographic interferometry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 01039). EDP Sciences.